



SCIENTIFIC AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF “YOUTH ECONOMIC ACTIVITY” AND THE NECESSITY OF ITS DEVELOPMENT

Bakhtiyor Tolipov

Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor

Independent Researcher at Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: political thinking, political elite, democratic society, political culture, social stability, civic consciousness, value system.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the factors influencing the formation of the political elite and examines the endogenous characteristics of political thinking in the context of democratic society development. The author evaluates political thinking as an essential factor shaping political culture, social activity, and political stability. The research highlights the interaction between the political elite and the public, the processes of political socialization, and the emergence of new forms of political thinking based on democratic values. The article also provides a theoretical justification of the role of political thinking in enhancing civic consciousness, deepening democratic reforms, and ensuring social stability. The results of the study reveal the evolutionary nature of political thought in modern political processes.

“YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIQI” TUSHUNCHASINING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Baxtiyor Tolipov

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: siyosiy tafakkur, siyosiy elita, demokratik jamiyat, siyosiy madaniyat, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik ong, qadriyatlar tizimi.

Annatatsiya: Ushbu maqolada siyosiy elitaning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda siyosiy tafakkurning endogen xususiyatlari demokratik jamiyat rivojida

o'zni nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Muallif siyosiy tafakkurni jamiyatning siyosiy madaniyati, ijtimoiy faolligi va siyosiy barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida baholaydi. Tadqiqotda siyosiy elita va xalq o'rtasidagi o'zaro aloqalar, siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlari hamda demokratik qadriyatlar tizimi orqali shakllanayotgan yangi siyosiy tafakkur shakllari yoritilgan. Maqolada shuningdek, siyosiy tafakkurning fuqarolik ongini yuksaltirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy siyosiy jarayonlarda tafakkurning evolyutsion xususiyatlarini ochib beradi.

НАУЧНО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ “ЭКОНОМИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ” И НЕОБХОДИМОСТЬ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Бахтиёр Толипов

Кандидат философских наук, доцент

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета,

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политическое мышление, политическая элита, демократическое общество, политическая культура, социальная стабильность, гражданское сознание, система ценностей.

Аннотация: В данной статье проанализированы факторы, влияющие на формирование политической элиты, а также исследованы эндогенные особенности политического мышления в контексте развития демократического общества. Автор рассматривает политическое мышление как важный фактор, формирующий политическую культуру, социальную активность и политическую стабильность. В исследовании освещены взаимодействие политической элиты и народа, процессы политической социализации и появление новых форм политического мышления, основанных на демократических ценностях. В статье теоретически обоснована роль политического мышления в повышении гражданского сознания, углублении демократических реформ и обеспечении социальной стабильности. Результаты исследования раскрывают эволюционный характер политической мысли в современных политических процессах.

Kirish. Inson faolligi uning shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega sifati va atrof-muhitni o‘z talablari, qarashlari, maksadlariga ko‘ra o‘zgartirish qobiliyati sifatida ahamiyatga egadir. Z.R.Qodirovaning fikricha: “Inson faolligi tushunchasi taraqqiyot tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Bu tamoyilning mundarijasi shundan iboratki, inson faoliyati muttasil ravishda o‘z-o‘zini namoyon qilishga qaratilgan bo‘ladi”[1].

“Faollik” terminidan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va umuman ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli darajalarida keng foydalanilmoqda. Bu tushunchaning difinitsiyasini amalga oshirish va gumanitar fanlarga tatbiqi masalasida turlicha qarashlar mavjud. Bizning jamiyatimiz mafkuraviy holati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi inson va fuqaroning faolligini talab qilmoqda. Ba’zi hollarda ilmiy jamoada bu shunday odatiy tusga kirganki, mazkur tushuncha ijtimoiy falsafa, tibbiyot fanlari va iqtisodiyot fanlari doirasida mustaqil tushuncha sifatida shakllandi. Masalan, “faol inson”, “faol hayotiy pozitsiya”, “faol o‘qitish texnologiyasi”, “eng faol fuqaro” v.h. “Faollik” tushunchasi bugungi ilmiy muomalada keng ma’noga ega bo‘lganki, bu tushunchaning falsafiy ma’nosiga aniqlik kiritishni, undan foydalanishda metodologiyani yaratishni talab qiladi.

Materiallar va metodlar. “Faollik” tushunchasining o‘zak ma’nosi faoliyatdir. Faoliyatsiz faollik bo‘lishi mumkin emas. Ijtimoiy falsafa fanining mavzularida “ehtiyoj”, “manfaat”, “maqsad”, “faoliyat” tushunchalari keng tadqiq etiladi. Bu tushunchalar inson faolligi kelib chiqishiga substansional asos bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday inson xatti-harakati faoliyat tushunchasi bilan izohlanadi. Turli ilmiy asarlarda “faoliyat” bilan “faollik” tushunchalari sinonim tarzida uchraydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Faoliyat [arabcha – harakatchanlik; ta’sirchanlik; samaradorlik] – biror sohada olib boriladigan ish, mashg‘ulot, harakat, jarayon”[2], “Falsafa: ensiklopedik lug‘at”da: “faoliyat – inson mavjudligining muhim xususiyatlaridan biri, kishilarning tashqi dunyoga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli”[3], – degan izoh va ta’rif berilgan. Bu tushuncha tahlilida “faoliyat – bu insonning tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan narsa, voqea, hodisa va jarayonlarning tub mohiyatini bilish asosida uni harakatchanlik, ta’sirchanlik, samaradorlikdan iborat bo‘lgan mashg‘ulot, ish-harakatlaridan tashkil topgan muhim hayotiy xususiyatlardir”, – degan qarashlar ham mavjud[4].

Ruscha lug‘atlarda “faoliyat”, “faollik” tushunchalarining umumiy ma’noda “faol”, “chaqqon”, “rivojlanuvchi” degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Kundalik badiiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda va maishiy hayotda “faollik” tushunchasi, ko‘pincha, “faoliyat” tushunchasi sinonimi tarzida qo‘llaniladi. Fiziologik ma’noda tirik mavjudotlarning umumiy xarakteristikasi

kabi an'anaviy tarzda qaraladi. Tirik organizmlarning tashqi omillarga ta'siri xususiyati tarzida tushuniladi. Faollik bu yerda faoliyat bilan nisbatda ko'rib, uning dinamikasi sifatida qaraladi va insonning o'z harakatini xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Tirik mavjudotlarda rivojlanishning evolyusion jarayonlariga qarab faollikning dinamik va statistik qonuniyatlari o'zgarib turadi.

Muhokama va natijalar. Inson o'z faoliyatini mehnatsiz tasavvur qilishi qiyin. Chunki faoliyatning maqsad-motivi mehnatni qanday tashkil etish, nima yaratish va qanday foyda olishdan iborat bo'ladi. Faoliyat shakllarini o'rganish asnosida falsafa sohasida praksilogik bilish, ya'ni bevosita inson o'z faoliyatini ongli, ongsiz boshqarishi, yo'naltirishi, rejali yoki rejasiz tashkil etishi singari sinergetik jarayon rivojlangan.

Ehtiyoj va manfaatlarning yo'nalishiga qarab inson faoliyatini bir qancha turkumga bo'lish mumkin: 1) moddiy-iqtisodiy faoliyat – tashqi tabiatni o'zlashtirish orqali odamning birlamchi ehtiyojlari – oziq-ovqat, kiyim, mehnat qurollariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish; 2) ijtimoiy-siyosiy faoliyat – ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning turli shakllari, ijtimoiy harakatni tashkil etish; 3) ma'naviy faoliyat – fan, san'at, din, mafkura va hokazolar sohasidagi faoliyat[5].

Faoliyat maqsadli bo'lib, jamiyatning biror-bir sohasida ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va umuman, yaratuvchanlik ishlari bilan shug'ullanishni bildiradi. Iqtisodiy faoliyat mavzusi iqtisodiy nazariya fani tarmog'ida o'rganilishi inobatga olinsa, iqtisodiy faoliyatning funksional, diferensial ichki tizimi kumulyativ modeli yaratilishini taqozo qiladi. Iqtisodiy faoliyatning madaniyatshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan o'rgangan L.N.Jo'raevning tadqiqotida "iqtisodiy faoliyatning ichki funksional tuzilishi quyidagicha belgilandi: 1) iqtisodiy faoliyat sub'ekti; 2) iqtisodiy faoliyat yo'naltirilgan ob'ekt; 3) iqtisodiy faoliyatning motivlari; 4) iqtisodiy faoliyatning vositalari; 5) iqtisodiy faoliyat texnologiyasi; 6) iqtisodiy faoliyat sharoiti; 7) iqtisodiy faoliyatning maqsadi; 8) iqtisodiy faoliyatning resurslari; 9) iqtisodiy faoliyat natijalari; 10) iqtisodiy faoliyatni boshqarish"[6]. Ushbu tadqiqotchi iqtisodiy faoliyatni inson madaniyatining bir bo'lagi sifatida tahlil qilgan bo'lib, sof iqtisodiy nazariya nuqai nazaridan turib o'rganmagan. Ushbu ichki tizimlashtirish iqtisodiy faoliyatning madaniy-sivilizatsion, faoliyatni maqsad-motivli xususiyatidan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

K.A.Abulxanova-Slavskayaning inson faolligi bo'yicha quyidagi ta'rifini keltirib o'tadi: "Faollik – faoliyat, muloqot va xulq-atvorning shaxs tomonidan modellashirilishi, tuzilishi va amalga oshirilishining baholash usuli bo'lib, bunda shaxs shaxslararo fazoda u yoki bu darajada mustaqil, u yoki bu darajada muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan tizim sifatlariga ega bo'ladi"[7]. Boshqa ta'rifga ko'ra, faollik – insonning u yoki bu vazifa, maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ruhiy-fiziologik energiyasidir[8]. Inson faolligi, bu – aholi ijtimoiy qatlami,

ijtimoiy harakatlarning, shaxsning jamiyatni, siyosiy-iqtisodiy tuzumni isloh qilishga, mukammallashtirishga intilishi, siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, ozod va farovon jamiyat barpo etish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilgan faoliyatidir[9].

A.S.Moiseevning fikricha, "faollik" tushunchasi falsafiy ma'noda, birinchidan, materiyaning universal, umumiy xususiyatini aks ettirib, harakatning birdan-bir me'yorini, yo'nalishini belgilaydi, ikkinchidan, ob'ektning ma'lum ma'noda qo'zg'alishi, start olishi holati, harakatning qaytar bog'lanish, o'zaro ta'sirlanish sharti, uchinchidan, ob'ektning boshqa ob'ekt bilan moddiy bog'lanish layoqatidir"[10].

Yuqoridagi ta'riflardan anglanadiki, faollik ijtimoiy, tarixiy jihatdan immanent rivojlangan individning intensiv va ekstensiv kurashish layoqati, insonning o'z-o'zini modellashtirishi va shaxs faoliyatini tartibga keltirilganlik belgisi sifatida ta'kidlab o'tilgan. Bizning fikrimizcha, faollik – inson manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi maqsadi-motivi, qiziqishining dialektik bog'lanishi bo'lib, individning jamiyat biror bir sohasiga nisbatan o'z-o'zini tashkil qilishi, modellashtirishini o'z ichiga olgan sinergetik jarayondir.

Faollik va inson faolligini turli davrlarda, turlicha ilmiy yo'nalishlar o'rgangan bo'lib, ularni taxminan quyidagicha turkumlash mumkin: Ijtimoiy faollik kategoriyasi inson faoliyatining ijtimoiy, ruhiy, fiziologik-jismoniy faollikni kuzatish asosida o'rganilgan. Ijtimoiy faollik motivlarini ilmiy tadqiq etgan L.I.Bojovich, A.V.Brushlinskiy, K.A.Abulxanova, D.B.Elkonin, M.Andreeva, A.V.Petrovskiy, D.I.Feldshteyn, Z.R.Qodirova, T.T.Malikov va boshqalarning tadqiqotlarida ijtimoiy faollik jamiyat a'zosi sifatida inson qobiliyati va imkoniyatlarining yuzaga kelishi deb aniqlanadi, shaxsning alohida jamoalarga yoki butun jamiyatga bo'lgan faol munosabatini belgilab, shaxsning ob'ektdan ijtimoiy munosabatlar sub'ektiga aylanishini aks ettiradi. Fuqarolik jamiyatida faollik bu – fuqarolarning ijtimoiy faolligi hisoblanadi. Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning "fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi"[11].

Inson iqtisodiy faolligining darajalari, kelib chiqishi, tadbirkorlikning shakllanish tarixi va jamiyatdagi aholining turli guruhlari, ya'ni yoshlar iqtisodiy faolligi, keksa yoshdagilarning iqtisodiy faolligi, iqtisodiy ong va madaniyat holati, mehnatda bandlik masalasining iqtisodiy tomonini tadqiq etgan va qisman falsafiy o'rgangan V.F.Vasilenko, M.R.Ismagulova,

P.I.Gennadeva, S.Yu.Romjin, Ye.I.Vasileva, I.A.Levandina, F.B.Kanoatova, B.N.Valiev, L.N.Jo'raev va boshqalarning tadqiqotlarida "iqtisodiy inson", "iqtisodiy madaniyat", "yoshlarning iqtisodiy madaniyati" mavzulari tizimli tahlil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda sof iqtisodchi nuqtai nazari yoki sof madaniyatshunos nuqtai nazari aks etib turadi. Iqtisodiy faollikning qonuniyatli immanent xususiyati tahlil etilib, iqtisodiy faollik iqtisodiy madaniyatning bir belgisi deb ta'kidlanadi. Lekin iqtisodiyfaollik kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy, praksiologik, axloqiy va estetik jihatlari tadqiq etilmagan.

Inson iqtisodiy faolligining psixologik jihatini o'rganish asosida shaxs faolligining emotsional qo'zg'alishlari, motivatsion faoliyat, faollikni rag'batlantiruvchi sabablar, faollikdan ma'no hosil qiluvchi sabablarni, pulning kelib chiqish psixologiyasi, tadbirkorlik psixologiyasini tadqiq etgan ruhiyatshunoslar Z.Freyd, L.S.Vygotskogo, S.L.Rubnshteyna, D.N.Uznadze, N.A.Breynshteyna, A.I.Kitov, A.N.Leonteva, A.A.Nikitin, O.X.Aymaganbetova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy faoliyat, faollikning psixologik jihatlari, o'z-o'zini tashkillashtiradigan omillar, immanent xususiyatlari yoritilgan.

Faollikning psixo-fiziologik jihatlarini iqtisodiy o'sish va faollikni keltirib chiqaruvchi omillar deb bo'rttirishlar ham uchraydi. Bu qarashning tarafdorlari fikricha, "Tafakkur salohiyati esa turli sohalar bo'yicha to'plangan bilimlar bo'lib, ular ana shu qobiliyatga ega shaxsga ko'plar uchun kutilmagan vazifani hal qilish yo'lini qidirib topishda namoyon bo'ladi.

Xulosa. Faollik insonni muayyan ishni bajarish uchun o'zining butun kuch-g'ayratini mujassamlashtirishga bo'lgan qobiliyatini ko'rsatadi. Mehnat jarayonida xodimning faolligi nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Insoning ehtiyojni shunchaki anglashi uni bu ehtiyojlarni qondirish vositalarini topish uchun faol harakat qilishga olib kelmaydi. Bunda ehtiyoj juda muhim bo'lishi va inson uni qondirishga qodirligiga ishonchi komil bo'lishi kerak. Faqat shundagina dastavval anglangan ehtiyoj motivga – insonning xatti-harakatini belgilaydigan ichki barqaror psixologik sababga aylanadi"[12]. Bizning ilmiy tadqiqotimiz aynan iqtisodiy faollik tushunchasining mohiyati va shakllanish qonuniyatini qamrab oladi. Shuning uchun yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, iqtisodiy faollik garchi ijtimoiy faollikning bir asosli ko'rinishi bo'lsa ham, lekin iqtisodiy islohotlar davrida insonni, yoshlarni iqtisodiy faollashtirish singari chora-tadbirlar, qonuniy, huquqiy me'yoriy bazasi shakllanishi buning qanchalik dolzarb mavzu ekanini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyatning faollik darajasiga ko'tarilishi uzluksiz sinergetik jarayon bo'lib, muayyan bosqichlardan iborat dialektik xususiyatlarni ham o'zida jamlaydi. Bizning fikrimizcha, uning quyidagi darajalari ketma-ket rivojlanish tendensiyasini ifodalaydi: 1) quyi – liberal-tolerant darajasida insonning iqtisodiy nafaol xatti-harakati kuzatiladi va u "tishini bergan rizqini

ham beradi”, degan tamoyilga amal qiladi; 2) oʻrta – utilitar-pragmatik iqtisodiy faoliyat boʻlib, inson xususiy hollarda ishlab chiqarish, xoʻjalik yuritishda shaxsiy manfaatlar darajasida cheklanib qolgan va faoliyatida “oʻzingni bil, oʻzgani qoʻy” tamoyilga amal qiladi; 3) iqtisodiy faoliyatning ratsional-konstruktiv darajasi nisbatan toʻliq iqtisodiy faollikdir. Bu darajada inson “hammasi oʻzingga bogʻliq” tamoyiliga amal qiladi, iqtisodiy inert holatidan qutilib ketish yoʻllarini anglagan, sabab va oqibat zanjirini kuzatgan, ularni bartaraf qilishning universal uslub va vositalaridan oqilona foydalanish metodologiyasini egallagan boʻladi.

Inson faolligi energiyasining “konfiguratsiyasi”, bir tomondan, jamiyat iqtisodiy rivojlanish potensialidan, yaʼni hozirgacha mavjud amaliyoti retrospektiv asoslaridan kelib chiqadi. Ikkinchi tomondan, uni faoliyatining muayyan yoʻnalishi va darajasida konkret ravishda ifodalaydi. Chunki insonning iqtisodiy faolligi imkoniyatlari umumiylikning konkret holda namoyon boʻlishidir. Shu nuqtai nazardan, “inson iqtisodiy faolligidagi individuallik, ijtimoiylikning mujassamlashgan va konkretlashgan holati tarzida qaralishi lozim. Eng muhimi, iqtisodiy faollikning yuqorida koʻrsatilgan har bir bosqichi bir-biridan nisbatan mustaqil amaliy faoliyat hisoblanadi”[13].

Inson iqtisodiy faolligining belgisi, avvalo, uning tafakkurida aks etib, oʻzining manfaatdorligini, maxsus faoliyatining maqsad motivi va sabablarini shakllantiradi. Iqtisodiy faollikni jamiyatda vujudga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari orqali namoyon boʻladigan manfaatlarning moddiy asosi tashkil etadi. Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ularning faolligi motivi hisoblanadi. Demak, birinchidan, iqtisodiy faollik, avvalo, tafakkur erkinligining mahsuli boʻlib, u insonda moddiy va huquqiy shart-sharoitlarning adekvatligi sharoitida yuzaga keladi; ikkinchidan, inson iqtisodiy faolligi qadriyatlar olamidagi oʻzgarishlar sifatida yuz bersa, qandaydir tor doiradagi utilitarizm, merkantilizm, konservatizmni oʻzida aks ettirsa, bunday iqtisodiy faollik umuminsoniy qadriyatlarga oʻz joyini boʻshatib beradi; uchinchidan, iqtisodiy faollik milliy gʻoya, mafkura va qadriyatlar doirasida amalga oshirilsa, u oxir-oqibatda umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqasini uzib merkantilizmga olib keladi; toʻrtinchidan, jamiyatda iqtisodiy faollik darajasini oshirish, mehnat qiluvchilarning aksariyat qismini haqiqiy mulkdorlar sinfiga aylantirishga intilish zarur. Chunki mulkdorlarga ishlab chiqarish vositalariga va mehnati natijalariga egalik huquqlarini himoya qilgan holda xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratadi va rivojlantiradi. Jamiyatning iqtisodiy farovonligini mustahkamlashdan manfaatdor boʻladilar; beshinchidan, iqtisodiy faol kishilarni koʻpaytirish, yoshlarning faolligi dinamikasini rivojlantirish uchun ishlab chiqarish jarayonida mehnatga adolatli haq toʻlash, xalqaro isteʼmol savatchasi talabidan kelib chiqib joriy etilishi, shuningdek, ularning jamoaviy va xususiy mehnat faoliyati sohasiga ulushini qoʻshish orqali ishtirokini

faollashtirish, rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish davlatning bosh islohotchilik rolini qay darajada bajarishiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirova Z.R. va boshqalar. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006.- 32-33-betlar.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.IV. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.- 326-bet.
3. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -281-bet.
4. Yaxshilikov J.Ya., Muxammadiyev N.E. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi. – T.: Fan, 2017.- 104-bet.
5. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.-281-282-betlar.
6. Jo‘rayev L.N. Iqtisodiy madaniyatning strukturaviy-funksional tahlili: Fal.fan. nomzod. avtoref. – T., 2005.-9-bet.
7. Qodirova Z.R. va boshqalar. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006.- 32-33-betlar
8. Qanoatova F.B. Mesto sistemi narodnogo obrazovaniya v povishenii intellektualnoy aktivnosti uchayueysya molodeji: avtoref. diss.kan.filos.n. – T., 1997.- S-8.
9. Islomova D.I. O‘zbekistonda farovon jamiyat barpo etishda inson omilini o‘rni. Fal.fan.nom .diss. – T., 2011. -32-33-betlar.
10. https://psyjournals.ru/files/63212/16_Moiseev.PDF
11. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo‘rayev Q. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari: o‘quv qo‘llanma. – T., 2015.- 264-bet.
12. Abdurahmonov Q.X. tahriri ostida. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2013. -117-bet.
13. Islomova D.I. O‘zbekistonda farovon jamiyat barpo etishda inson omilining o‘rni: Fal.fan.nom .diss. – T., 2011. B.27.